



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 yil 15-mart, № 53 (8948)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI ROSSIYA BILAN PARLAMENTLARARO HAMKORLIK KENGAYISHINI QO'LLAB-QUVVATLADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14-mart kuni Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Davlat Dumasi Raisi Vyacheslav Volodinni qabul qildi. O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarining dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'tgan yil may oyida Rossiya Prezidentining O'zbekistonga davlat tashrifi chog'ida erishilgan kelishuv va bitimlarning amalga oshirilishini nazorat qilish maqsadida parlamentlararo hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qarlatildi.

Mamlakatimiz yetakchisi Parlamentlararo komissiyaning ikkinchi yig'ilishiga puxta tayyorgarlik ko'rish va uni O'zbekistonda, ikki mamlakat hududlarini keng jalb etgan holda o'tkazish muhimligini ta'kidladi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikning ustuvor loyihalarini, mehnat migratsiyasi va madaniy-gumanitar almashinuv borasidagi qo'shma dasturlarni qo'llab-quvvatlash va jadallashtirishda parlamentlar faol ishtirok etishi zarurligi qayd etildi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI IMOM MOTURIDIY TAVALLUDINING 1155-YILLIGINI KENG NISHONLASH TO'G'RSIDA

Buyuk vatandoshimiz, islomiy ilmlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan benazir alloma, kalom ilmining sultoni Imom Abu Mansur Moturidiyning (keyingi o'rinlarda — Imom Moturidiy) ibratli hayot yo'li va boy ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganishni rag'batlantirish, moturidiylik ta'limotiga xos bag'rikenglik va mo'tadillik tamoyillarini xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib etish, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida qaror qilaman:

1. Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Samarqand viloyati hokimligi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2025-yilda Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligini keng nishonlash to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligiga bag'ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita (keyingi o'rinlarda — Tashkiliy qo'mita) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tashkiliy qo'mita (A. Aripov) ikki hafta muddatda Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligini allomaning islom olamidagi obro'-e'tibori va nufuziga munosib tarzda yuqori saviyada nishonlash bo'yicha quyidagilarni nazarda tutadigan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlansin:

a) 2025-yil aprel oyida Samarqand shahrida "Moturidiylik — bag'rikenglik, mo'tadillik va ma'rifat ta'limoti" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazish;

b) xorijlik tadqiqotchilar o'rtasida moturidiylik ta'limoti bo'yicha ilmiy tanlov o'tkazish, g'oliblar ishtirokida O'zbekistonda madaniy-ma'rifiy uchrashuv va seminar-treninglar tashkil etish;

v) Imom Moturidiyning "Ta'vilot al-Qur'on" va "Kitob at-tavhid" asarlari va moturidiylik ta'limotiga oid manbalarning o'zbek va xorijiy tillardagi ilmiy-izohli akademik tarjimalarini nashr etish;

g) Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligiga bag'ishlangan esdalik suvenirlarini muomalaga chiqarish hamda pochta markalari, taqvimlar, buyuk mutafakkirning hayoti va ilmiy merosini yoritib beradigan boshqa ko'rgazmali axborot vositalari turkumini yaratish;

d) Imom Moturidiyning serqirra hayot yo'li va ilmiy merosining bugungi kundagi ahamiyatini ochib beradigan badiiy-publististik film yaratish;

ye) Samarqand viloyatida Imom Moturidiy va moturidiylik ta'limoti yo'nalishida faoliyat olib borgan allomalarning hayoti, ilmiy va ijodiy merosiga bag'ishlangan asarlarining nodir qo'lyozma va nashr nusxalari hamda kitoblari ko'rgazmasini tashkil etish;

j) Samarqand shahridagi Abu Mansur Moturidiy majmuasini qayta ta'mirlash va obodonlashtirish.

4. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

a) Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan birgalikda 2025-yil may va oktabr oylarida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan "Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini hamda ilmiy maqolalar tanlovinini o'tkazish;

b) moturidiylik ta'limotiga mansub allomalarning ilmiy merosi va noyob qo'lyozma asarlarni o'rganish bo'yicha ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasini belgilangan tartibda shakllantirib borsin.

5. O'zbekiston musulmonlari idorasiga imom-xatiblar hamda diniy ta'lim muassasalarini talabalari o'rtasida "Moturidiylik ta'limoti bilimdoni" tanlovinini o'tkazish va g'oliblarni munosib taqdirlash tavsiya etilsin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari Din ishlari bo'yicha qo'mita, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda 2025-yil davomida joylarda Imom Moturidiyning ilmiy merosiga bag'ishlangan davra suhbatlarini tashkil etsin.

7. Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Madaniy meros agentligi bilan birgalikda:

a) xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan Imom Moturidiy va moturidiylik ta'limotiga mansub allomalarning hayoti va ilmiy merosiga oid noyob qo'lyozma asarlar va boshqa madaniy boyliklarni aniqlash, ularning nusxalarini O'zbekistonga olib kelish va tadqiq qilishni tizimli ravishda tashkil etsin;

b) Imom Moturidiyning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan yuqori sifatli mediamahsulotlar hamda audiovizual asarlar yaratish, ularni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish, internet tarmog'ini va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ'ib qilish choralarini ko'rsin.

8. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, "Dunyo" axborot agentligi va O'zbekiston milliy media assotsiatsiyasiga Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi R.Q.Davletov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh. MIRZIYOEV

Toshkent shahri,
2025-yil 14-mart

O'zbekiston — Rossiya:

O'ZARO MUNOSABATLARDA YANGI QADAM

Kecha Oliy Majlis Senatida Rossiya Federal Majlisi Davlat Dumasi Raisi Vyacheslav Volodin boshchiligidagi delegatsiya a'zolari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Muloqot

Uchrashuv avvalida Senat Raisi Tanzila Norboyeva martabali mehmonni yurtimizga tashrifi bilan qutlab, uning bu tashrifi parlamentlararo munosabatlarni yangi ruhda davom ettirishdagi muhim qadam ekanini ta'kidladi.

"Ikki davlat o'rtasida oliy darajada erishilgan kelishuvlarni hayotga tatbiq etish uchun qonuniy asoslarni yaratish parlamentlararo munosabatlarda asosiy vazifalardan biridir. Ushbu uchrashuv xalqlarimiz manfaatlaridan kelib chiqadigan maqsadlarni amalga oshirish yo'lidagi faol muloqotlar uchun qulay fursatdir", deyildi suhbatda.

Bugungi kunda O'zbekiston — Rossiya munosabatlari yangi bosqich — ko'p qirrali strategik ittifoqchilik va ishonchli hamkorlik darajasiga ko'tarildi. Bunda ikki mamlakat prezidentlari belgilab bergan istiqbolli vazifalar va ularning ijrosi muhim o'rin egallaydi.

Muloqot chog'ida migratsiya masalasida dolzarb vazifalar mavjudligi va bu jarayonda ikki davlat fuqarolarining huquq hamda manfaatlarini himoya qilishning qonuniy yechimlarini hamkorlikda topish muhimligi aytiladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston — Rossiya parlamentlari aloqalarining bugungi holati tahlil qilinib, ikki davlat munosabatlarida parlamentlararo yaqin hamkorlik muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlab o'tildi.

Bu borada Oliy Majlis Senati va Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi o'rtasida qo'shma komissiya faoliyat yuritib kelayotgani, ikki davlat parlamentlarining yuqori palatalari rahbarlari muntazam ravishda o'tkazayotgan uchrashuvlar ishonchli hamkorlik muhitida o'z samarasini berayotgani e'tirof etildi.

O'z navbatida, martabali mehmon samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi.

— Biz O'zbekistonda Rossiyaning 10 ta ishonchli hamkoridan biri, deb hisoblaymiz. Mamlakatlarimiz o'rtasida qaror topgan mustahkam do'stlik va ishonchli sheriklik siyosatini qo'llab-quvvatlaymiz, parlamentlarimizning izchil va samarali faoliyatidan manfaatdormiz hamda hamkorligimizni yuqori sur'atlarda davom ettirish tarafdorimiz, — dedi V. Volodin.

Shuningdek, suhbat davomida istiqbolda o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash, erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish mexanizmlari ustidan nazorat, qonunchilik sohasida tajriba almashish va Yoshlar parlamenti aloqalarini faollashtirish yuzasidan fikr yuritildi.

O'zbekiston tomoni Rossiya parlamenti rahbariyati va vakillarining yaqinda Toshkentda o'tkaziladigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi tadbirlarida faol ishtirokini mamnuniyat bilan qabul qilishini bildirdi.

«Xalq so'zi».

MA'RIFIY DIPLOMATIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning davlat rahbarlariga kitob sovg'a qilishi zamirida mujassamlashgan ma'naviy jasorat haqida

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron taklifiga binoan ushbu mamlakatga amalga oshirgan davlat tashrifi chog'ida bo'lib o'tgan do'stona muloqotlar, O'zbekiston rahbariga ko'rsatilgan alohida e'tibor va samimiy munosabat meni juda quvontirdi. Bu butun dunyoda, ayniqsa, Yevropada O'zbekistonga bo'lgan qarashlar tobora ijobiy ma'no kasb etayotganligini anglatadi. Davlatimiz rahbari Fransiya Respublikasining oliy mukofoti — Faxriy legion ordeni bilan taqdirlangani ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

Nigoh

Mazkur davlat tashrifi bilan bog'liq ma'lumotlarni o'qish davomida O'zbekiston Prezidentining Matbuot kotibi Sherzod Asadovning telegram kanalida berilgan mana bu xabar e'tiborini tortdi: "Yelisey saroyidagi oliy darajadagi uchrashuv chog'ida Prezident Shavkat Mirziyoyev Prezident Emmanuel Makronga buyuk fransuz yozuvchisi Viktor Gyugoning o'zbek tiliga tarjima qilingan "Kulayotgan odam" romanining ilk nusxasini sovg'a qildi..."

Prezidentimiz 2020-yil Anqara shahrida Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xalq kutubxonasining ochilish marosimida so'zlagan nutqida shunday degan edi: "Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti — kitob va kutubxonalarda".

Shavkat Mirziyoyev Turkiyadagi mazkur kutubxonaga dunyoda o'ta noyob bo'lgan "Usmon Mushaffi"ning xattotlarimiz tomonidan ko'chirilgan nusxasini, Jaloliddin Rumiyning mashhur "Masnaviy" asari hamda Abu Bakr ar-Roziyning "Kasallik tarixi" asari qo'lyozmalarining faksimile nusxalarini, "Alisher Navoiy asarlarining Istanbul kutubxonalaridagi tasviriy nusxalari" nomli kitob-albomni, Yunus Emro she'rlarining o'zbek tiliga tarjimasini jamlangan "O'lmas ko'ngul" deb nomlangan kitoblarni tuhfa qilgan edi.

O'zbekiston Prezidenti Matbuot kotibining yuqoridagi xabarini o'qiganimdan keyin ko'nglimdan shunday bir fikr o'tdi: davlat rahbarlariga kitob sovg'a qilish Prezident Shavkat Mirziyoyevning dunyo diplomatiyasidagi yangi ma'rifiy uslubi bo'lib, bu o'rinda "ma'rifiy diplomatiya" iborasini ishlatish to'g'ri bo'ladi.

Prezidentimiz shu paytgacha Turkiya, Vengriya, Yaponiya, Fransiya, Belarus, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Qozog'iston kabi mamlakatlar rahbarlariga kitob sovg'a qilganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Prezidentlar va Hukumat rahbarlariga taqdim etilgan bu kitoblar, asosan, o'sha xalqlarning davlatchiligi, tarixi, adabiyoti, madaniyati, tili, diniga oid eng nodir, shoh asarlar hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat boshliqlariga kitob sovg'a qilishi bilan mamlakat xalqiga bo'lgan cheksiz hurmati, ehtiromini ham ifoda etadi.

Kitob sovg'a qilish zamirida bugungi texnologiyalar asri ayovsiz o'z domiga tortib ketayotgan kitoblarni asrab qolish va kitob o'qishni rag'batlantirish g'oyasi ham mujassamlashgan.

O'zbekiston rahbarining ma'rifiy diplomatiyasi bugun butun dunyoda e'tirof etilayotganligi, ibrat sifatida ko'rsatilayotganligi har birimizga faxr-iftixor bag'ishlaydi.

Adabiyot, kitob darajasida xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan, bir-biriga bog'laydigan boshqa vosita yo'q, deb o'ylayman. Kitoblar xalqlar

haqida, madaniyatlar to'g'risida eng ko'p ma'lumot beradigan manbadir. Mazkur kitoblar mamlakat rahbarlariga sovg'a qilinayotgan ekan, bu bilan Prezidentimiz bizning xalqimiz sizlarning adabiyotingizni sevib o'qiydi va qadrlaydi, degan tuyg'uni ham ifoda etadi.

2016-yildan boshlab, O'zbekistonda jahon mamlakatlari liderlarining kitoblarini nashr etish an'anasi yaratildi. Buning natijasida Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpinning "Qashshoqlikdan xalos bo'lish", Singapur Bosh vaziri lavozimida faoliyat ko'rsatgan Li Kuan Yuning "Uchinchi dunyodan birinchi dunyoga" nomli kitoblari o'zbek tilida chop qilindi. Bu jarayonlar, ya'ni ma'rifiy diplomatiya izchil davom ettirilmoqda.

Ma'rifiy diplomatiya natijasida Koreya Respublikasida "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev", Ozarbaydagi "Shavkat Mirziyoyev fenomeni", Xitoyda "Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistondagi islohotlar davrining me'mori" nomli kitoblar nashr etildi va xalqaro miqyosda taqdimotlari o'tkazildi.

Nafaqat go'zallik, ezgulik, yaxshilik va ma'rifat, balki kitoblar ham dunyoni qutqaradi. Insoniyatga ruhiy sokinlik, xotirjamlik bag'ishlaydi. Insoniyat internet va zamonaviy texnologiyalarni inkor etmagan holda kitobga qaytishi kerak.

Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron Shavkat Mirziyoyevga XIX asr oxirida fransuz jizzax tomonidan suratga olingan Jizzax vohasidagi "Temir qoppa" darasi manzarasi aks etgan tarixiy rasmini sovg'a qildi. O'zbekiston rahbari tomonidan asos solingan ma'rifiy diplomatiya butun dunyoda aks sado bermoqda...

Rustam XOLMURODOV,
Samarqand davlat universiteti rektori, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati a'zosi.

FAOL ISLOHOTLARNING YUKSAK E'TIROFI



Prezident Shavkat Mirziyoyev keyingi paytlarda dunyoning yetakchi davlat rahbarlari tomonidan, shuningdek, xalqaro ekspert doiralari va xorijiy ommaviy axborot vositalarida o'ta pragmatik, o'z dunyoqarashiga ega, gapdan ko'ra ishini ma'qul ko'radigan siyosatchi sifatida tez-tez e'tirof etilmoqda. Bu, albatta, qalblarimizni faxrga to'ldiradi.

Dunyo va biz

Prezidentimiz kuni kecha davlat tashrifi bilan borgan Fransiyada ham katta hurmat va ehtirom bilan kutib olindi. Davlatimiz rahbarining ikki mamlakat hamkorligini rivojlantirish, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va o'zaro anglashuvni mustahkamlashga qo'shgan ulkan hisssasi uchun Fransiya Respublikasining oliy mukofoti – Faxriy legion ordeni bilan taqdirlanishi esa yuksak e'tirofning yaqqol namoyishi bo'ldi.

Fraxriy legion ordeni 1802-yilda ta'sis etilgan bo'lib, Fransiyada ushbu orden alohida xizmatlarning davlat darajasida e'tirof qilinishi va shon-sharafning e'yoqori belgisi hisoblanadi. Bunday yuksak mukofotga o'z mintaqasi va xalqaro maydonda tashabbuskorligi, islohotparvarligi bilan ajralib turadigan yetakchilarga munosib ko'riladi.

Yana bir e'tibori jihat, Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron Yelisey saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev sharafiga davlat qabul marosimini uyushtirdi. Qabulda ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari, Fransiya Bosh vaziri Fransua Bayru boshchiligidagi Vazirlar Mahkamasi a'zolari, tanikli madaniyat, san'at va fan arboblari, ishbiarmon doiralari hamda jamoatchilik vakillari ishtirok etgani rasmiy Parijning O'zbekistonga va uning rahbariga hurmati va yuksak ishonchning ifodasi bo'ldi, desak, yanglishmaymiz.

Ushbu tashrif ikki tomonlama aloqalar tarixida yangi sahifa ochdi. Ikki davlat strategik hamkor bo'lishga kelishib olgani – Toshkent va Parij munosabatlari yangi bosqichga ko'tarilishidan darak beradi. Strategik sheriklik – bu eng muhim masalalarda birga qadam tashlash kelishuvi bo'lib, xalqaro munosabatlardagi yuqori darajali hamkorlik hisoblanadi.

talablaridan o'zaro ozod qilish to'g'risidagi hukumatlararo bitim hamda Fransiyaning yetakchi kompaniyalari bilan O'zbekistonda 6,5 mlrd. yevrolik istiqbolli kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi Investitsiya va innovatsiya sohalaridagi hamkorlik dasturi almashildi.

Shuningdek, davlat tashrifi davomida imzolangan O'zbekiston – Fransiya universitetini tashkil etish to'g'risidagi hukumatlararo bitim, Sog'liqni saqlash sohasida hamkorlik to'g'risidagi deklaratsiya, Fransuz tilini o'qitishni kengaytirish to'g'risidagi bayonnom, Musiqa, kino va teatrlar sohalarida hamkorlik to'g'risidagi deklaratsiya, bundan tashqari, Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi bilan Fransiya Madaniyat vazirligi, Madaniy meros milliy instituti va Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti o'rtasidagi hamkorlik bitimlari, Toshkent va Parij shaharlari o'rtasida sheriklik munosabatlari o'rnatish to'g'risidagi bayonnom va boshqa ikki tomonlama hujjatlar munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishi tabiiy.

O'tgan yili tovar ayirboshlash hajmi ilk bor 1 mlrd. yevrodan oshgani, qo'shma korxonalar soni esa 4 barobar ko'paygani hamkorlik jadal bosqichga ko'tarilganini anglatadi. Yurtimizda Fransiyaning "Orano", "EDF", "Total", "SUEZ", "Voltaia", "Veolia" va ko'plab boshqa yetakchi kompaniyalari ana shu muvaffaqiyatli aloqalarga kamrabasta bo'lyapti. Fransiya taraqqiyot agentligi bilan sheriklik yangi sifat kasb etdi, u bilan yangi Hamkorlik dasturi qabul qilinoqda. Tashrifga tayyorlik doirasida Ishbiarmonlar palatasi o'z ishini boshladi. Savdo-iqtisodiy va investitsiya-moliyaviy sohalarida o'zaro manfaatli rishtalarni kengaytirish, Fransiyaning yetakchi kompaniyasi va korxonalar bilan kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga ustuvor ahamiyat qaratildi. Muhim mineral xomashyo resurslarini qazib olish va qayta ishlash, energetika, infratuzilmani rivojlantirish, transport va boshqa tarmoqlarda qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda bo'ldi. Umuman, qo'shma loyihalar portfelini 12 mlrd. yevrodan ziyodini tashkil qilmoqda.

Davlatimiz rahbari ushbu muvaffaqiyatli kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yishga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston – Fransiya investitsiya kengashini ta'sis etish va uning birinchi yig'ilishini joriy yil iyun oyida Toshkent investitsiya forumi doirasida o'tkazishni taklif qildi. Hududlararo aloqalarni rag'batlantirish maqsadida kelgusi yilda Samarqand shahrida ikki mamlakat hududlarining birinchi forumini o'tkazishga kelishib olindi.

Shu kunlarda Parij, Tuluza, Lion va Nissa shaharlarida hududlarning faol ishtirokida tadbirlar o'tkazilmoqda. Qo'shma tibbiyot forumi hamda fan va ta'lim bo'yicha konferensiya, O'zbekistonning turizm salohiyati va madaniyatiga bag'ishlangan taqdimotlar o'tkazildi. Grets-Armenvil shahrida buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy byusti ochildi. Yetakchilar gumanitar yo'nalishdagi amaliy hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Parij shahrida I. Savitskiy nomidagi davlat san'at muzeyi to'plamidagi avangard asarlar ko'rgazmasini tashkil etish, madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo'yicha hamkorlik uchun mamlakatimizda

Fransiya merosi instituti vakolatxonasini ochish rejalari qo'llab-quvvatlandi. Joriy yilda Toshkent shahrida fransuz mutaxassislarini jalb etgan holda O'zbekiston – Fransiya universiteti ochilishi ta'lim sohasidagi asosiy kelishuv bo'ldi. Fransuz tili o'qituvchilarini tayyorlash yo'nalishida ham samarali hamkorlik davom ettirildi. Ishbiarmonlik, turizm va madaniy almashinuvlarni faollashtirish maqsadida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar sonini ko'paytirish masalasi ko'rib chiqildi.

Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar. Tashkilotlar doirasida bir-birini qo'llab-quvvatlashni davom ettirish, terrorizm, ekstremizm, radikalizm, kibernetik jihatdagi xavfsizlikka tahdid solayotgan boshqa zamonaviy xatarlarga qarshi kurashishda sa'y-harakatlarni birlashtirish muhim ekani ta'kidlandi. Tizimli muloqotni yo'lga qo'yish va muvofiqashtirish maqsadida Tashqi ishlar vazirligini boshchiligidagi iqtisodiy idoralarni jalb qilgan holda Strategik rejalashtirish guruhini tuzishga kelishib olindi.

Iqtisodiyoti hajmi bo'yicha Yevropada 3-o'ringda, jahonda 7-pog'onada bo'lgan Fransiya Yevropa Ittifoqida yetakchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. Fransiya iqtisodiyotining boshqa yirik tarmoqlari – mashinasozlik (jahon ishlab chiqarishning 2,7 foizi), kimyo (jahon eksportida 4-o'rin), aviakosmik, avtomobilsozlik, oziq-ovqat (eksport hajmi bo'yicha AQShdan keyin 2-o'ringda), radioelektronika, elektrotexnika hamda informatika va kemasozlik. Shuningdek, atom energetikasini rivojlantirish sohasida eng ilg'or mamlakatlardan biri (energiyaning 75 foizidan ortig'i AESdan olinadi).

Dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab siyosiy va iqtisodiy voqealarda Fransiya O'zbekiston bilan ham ikki tomonlama, ham Yevropa Ittifoqi orqali ko'p tomonlama formatda hamkorlikni faollashtirishga intilmoqda. O'rta muddatli istiqbolida Parij Toshkentning o'sib borayotgan geosiyosiy ahamiyatini hisobga olgan holda mintaqaga aloqalarni bosqichma-bosqich mustahkamlash yo'nalishida ishlarni davom ettirish niyatida. Shu bilan birga, mintaqaning istiqbolli investitsiyaviy va transport-kommunikatsiya salohiyati, fransuz tovarlari va xizmatlari uchun keng bozorni mavjudligi, katta miqdordagi uglevodorod zaxiralari mintaqani fransuz tadbirkorlari va ishbiarmon doiralari uchun, ayniqsa, jozibador qiladi. Zero, har bir investor O'zbekiston deganda, eng avvalo, barqarorlik va kelajakka ishonchni tasavvur qilishga intilyapti.

Bu sa'y-harakatlar natijasida O'zbekiston imjisi tubdan o'zgardi. Buni O'zbekistonning jahonda demokratik jamiyat, kuchli, raqobatbardosh iqtisodiyot, innovatsion institutlar va infratuzilmaga ega mamlakat sifatida qabul qilayotganida ham ko'rish mumkin. O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ko'plamli va jadal demokratik islohotlar bugungi kunda ortga qaytmas tus olganini, ularning asosini inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish tashkil etishini Fransiya kabi rivojlangan davlatlar yaqqol ko'rib turibdi.

Abduvali SOYIBNAZAROV (Xalq so'zi).

O'zbekiston – Fransiya: TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUSHTARAK MAQSADLAR SARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiya Respublikasiga davlat tashrifi dunyo siyosiy sahnida mamlakatimizning obro'-e'tibori, nufuzi tobora yuksalib borayotganining yana bir amaliy ifodasi bo'ldi.

Mushohada



Fransiya yetakchisining davlatimiz rahbariga ko'rsatgan yuksak hurmat-ehtiromi, mamlakatning oliy mukofoti – Faxriy legion ordeni bilan taqdirlashi, o'zbekona lutf etishi, Prezidentlar qabul qilgan Strategik sheriklik o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya, shuningdek, hamkorlikning turli yo'nalishlari bo'yicha bitimlarning salmoqli to'plami – bularning barchasi nafaqat xalqimiz, balki butun dunyo jamoatchiligini tomonidan katta qiziqish bilan kuzatildi, e'tirof etildi.

Faxrlanishga arzigulik bunday samimiyy munosabat jahon hamjamiyatining Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga yuksak ishonch va ehtirom bilan qarayotganini yana bir bor ko'rsatdi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda O'zbekistonda hamma sohada ulkan yangilanishlar va tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu nafaqat ichki siyosat, balki tashqi aloqalar, xalqaro munosabatlarda ham yaqqol namoyon bo'layotir.

O'zbekistonning tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlari barqaror, adolatli va demokratik davlat qurishga, mamlakatning dunyoga ochiqqligini namoyon qilishga hamda regional va ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga qaratilganidir.

Xorijiy sheriklar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish bo'yicha ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Yevropa Ittifoqi va uning yetakchi a'zo davlatlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish hamda kengaytirish jarayonini davom ettirishdan manfaatdor. Ular orasida Fransiya Respublikasi eng yaqin va ishonchli sheriklardan hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, 2016-yildan keyin o'zaro munosabatlari yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiya 2018-yil 8-9-oktabr kunlari amalga oshirgan rasmiy tashrifi aloqalarning yangi davrini boshlab berdi. Parijda o'tgan oliy darajadagi muzokaralar chog'ida hukumatlararo va idoralararo qator hujjatlar imzolandi.

Mazkur hujjatlar ijrosi doirasida "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universitetida UNESCO kafedrasida tashkil etildi. Ushbu kafedra mintaqada suv tanqisligini yumshatish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqlim o'zgarishi natijasida qishloq xo'jaligi ekinlariga ta'sirini baholash kabi fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston va Fransiya hamkorligi kun tartibida o'zbek – fransuz siyosiy muloqotini yanada mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish, madaniy-gumanitar almashinuvlarni faollashtirish masalalari doimiy o'rin oldi. Ikki davlatning dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolari hal qilishga doir yondashuvlari yaqin yoki mos, shu bois mintaqaviy hamda xalqaro hamkorlik, xavf-xatarlarga qarshi birgalikda kurashishning yangi shakllarini rivojlantirish muhimligiga e'tibor qaratilmoqda.

Hyech mubolag'asiz aytish mumkinki, bir tomondan, O'zbekistonda hayotning barcha jabhasini erkinlashtirish va modernizatsiya qilish

bo'yicha ro'yobga chiqarilayotgan ko'p qirrali islohotlar, boshqa tarafdin – rasmiy Toshkentning mamlakat atrofida xavfsizlik va barqarorlik belbog'ini yaratish yo'lidagi faol harakatlari hamda bular Parijning Markaziy Osiyodagi siyosatiga hamohang ekani mazkur jarayonlarga o'z gacha sur'at bag'ishlamog'da. Mintaqaga nisbatan Fransiya pozitsiyasi Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar suvereniteti, xavfsizligi va farovonligini yoqlashi bilan hamisha ajralib turgan.

Prezidentimizning Fransiya joriy tashrifi chog'ida ham madaniy-gumanitar hamkorlikni izchil davom ettirishga alohida urg'u berildi. Xususan, Yelisey saroyida o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning muzokaralarida Parij shahrida I. Savitskiy nomidagi davlat san'at muzeyi to'plamidagi avangard asarlar ko'rgazmasini tashkil etish, madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo'yicha hamkorlik uchun mamlakatimizda Fransiya merosi instituti vakolatxonasini ochish rejalari qo'llab-quvvatlandi.

Joriy yilda Toshkent shahrida fransuz mutaxassislarini jalb qilgan holda O'zbekiston – Fransiya universiteti ochilishi ta'lim sohasidagi asosiy kelishuv bo'lgani ta'kidlandi. Fransuz tili o'qituvchilarini tayyorlash yo'nalishida ham samarali hamkorlik davom ettirildi.

Aytish kerakki, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining xalqarolashgan tamoyili asosida "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti va Fransiyaning "SUEZ" xalqaro kompaniyasi kelishuv bitimini imzoladi.

Mazkur bitimga asosan, ikki mamlakatning ta'lim salohiyatini rivojlantirish, teng manfaatli ilmiy tadqiqotlarda hamkorlik qilish belgilangan. Jumladan, ichimlik suvi ta'minotini modernizatsiyalash yuzasidan ilmiy aloqalarni kengaytirish, ilmiy-innovatsion laboratoriya tashkil etish, "aqli" sug'orish va suvni tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqarish, barqaror shahar va qishloq suv boshqaruvi doir texnologiyalar transferi bo'yicha hamkorlikni yanada kuchaytirish ko'zda tutilgan. O'zbekistonlik mutaxassislar va tadqiqotchilar uchun ishlab chiqarish ta'limi va stajirovkalari amalga oshirildi.

Fransiya tajribasi va salohiyatini o'rganish mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishda ustuvor loyihalarni hayotga tatbiq etish, ta'lim tizimi sifatini yuqori bosqichga chiqarish, iqtisodiyotni sanoat va texnologiyalar jihatdan modernizatsiyalash hamda uni tarkibiy jihatdan diversifikatsiyalashga yaqindan ko'mak beradi.

Har ikki mamlakatda olib borilayotgan islohotlar jarayoni nafaqat o'zbek – fransuz, balki O'zbekiston va YI strategik hamkorligining ko'p qirrali munosabatlarni yangi bosqichda hayotga tatbiq qilish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Dunyoda yuksak mavqeyga ega bo'lgan Fransiya bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni yanada rivojlantirish O'zbekistonning xalqaro maqomi hamda nufuzini oshirish, mamlakatimizga yuqori sifatli investitsiyalar va ilg'or texnologiyalarni jalb qilish, sayyohlar oqimini ko'paytirish imkonini beradi. Shuningdek, o'zbek mahsulotlarini ushbu mamlakatga va Yevropaga eksport qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Bahodir MIRZAYEV, «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislari instituti» milliy tadqiqot universiteti rektori.

Manfaatli aloqalar yanada mustahkamlanadi

O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi aloqalar ko'p qirrali bo'lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ta'lim hamda boshqa sohalarini qamrab oladi. Ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yilda o'rnatilgan.

Fikr

Keyingi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev hamda Prezident Emmanuel Makronning faol sa'y-harakatlari tufayli O'zbekiston – Fransiya munosabatlarida salmoqli muvaffaqiyatlar erishilgani kuzatilmoqda. Buni so'nggi sakkiz yil ichida yurtimizda Fransiya kompaniyalari ishtirokida qo'shma korxonalar va loyihalarning soni keskin oshgani ham yaqqol tasdiqlaydi.

Ikki davlat o'rtasida yuqori darajadagi tashriflar amalga oshirilgan bo'lib, ular o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilib kelayapti.

Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy sohadagi sheriklik ham muhim ahamiyatga ega. Fransiya O'zbekistonning Yevropa Ittifoqidagi muhim savdo hamkorlaridan biri sanaladi. Fransuz kompaniyalari O'zbekistonda energetika, infratuzilma, transport va qishloq xo'jaligi sohalarida faoliyat yuritmoqda.

Shuningdek, madaniyat va ta'lim sohalaridagi hamkorlik ham rivojlanib boryapti. O'zbekistonda fransuz tili, madaniyatiga qiziqish ortib, fransuz tili o'qitiladigan maktablar hamda universitetlar soni ko'paymoqda. O'z navbatida, Fransiya ham o'zbek madaniyati va san'atiga qiziqish boryapti hamda turli madaniy tadbirlar o'tkazilayotir.

Ikki davlat xalqaro tashkilotlar doirasida ham hamkorlik qiladi. O'zbekiston va Fransiya BMT, UNESCO kabi xalqaro tashkilotlarda o'zaro qo'llab-quvvatlash hamda hamkorlikni amalga oshiradi. Umuman, O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi aloqalar barcha sohada izchil rivojlanib, ikki davlat manfaatlariga xizmat qilayapti.

shariklikni rivojlantirish bilan birga, uni yuqori bosqichga ko'tarishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu tashrifning eng e'tibori tomoni shundaki, O'zbekiston 30 yildan ziyod davr ichida Fransiya bilan ikki marta davlat tashrifini amalga oshirmog'ga. Bu maqomni diplomatiyada mezbon mamlakat tasdiqlaydi. Uning natijalari, albatta, O'zbekiston – Fransiya hamkorligini strategik sheriklik darajasiga olib chiqadi.

Davlatimiz rahbari tashrif doirasida BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (UNESCO) bosh direktori Odr Zuleni qabul qildi. BMT tizimidagi ushbu nufuzli tashkilot bilan samarali hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari, shuningdek, tashkilot Bosh konferensiyasining 43-sessiyasini joriy yil kuzda Samarqand shahrida o'tkazishning amaliy jihatlari muhokama etildi.

Muloqot davomida mamlakatimizning mazkur tashkilot bilan ko'p qirrali sherikligi bugungi kunda yuksak darajada ekani qayd etildi. O'zbekiston tashabbusi bilan axborotdan foydalanish va bolalar ta'limi masalalari bo'yicha rezolyutsiyalar qabul qilindi.

Parij shahridagi Burbon saroyida Fransiya Milliy majlisi Raisi Yael Braun-Pivle bilan bo'lib o'tgan

uchrashuvda ikki davlat o'rtasidagi parlamentlararo almashinuvni yanada kengaytirish, O'zbekiston – Fransiya parlamentlararo forumini tashkil etish va "Yo'l xaritasi" asosida do'stlik guruhlarini ishini qayta tiklash masalalari ko'rib chiqildi.

Mamlakatimiz yetakchisi Milliy majlis Raisini joriy yil aprel oyida Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida ishtirok etish uchun mamlakatimizga taklif qildi. Bu esa xalqaro aloqalarni mustahkamlash va parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirishga imkon beradi.

Eng asosiysi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron Strategik sheriklik o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani qabul qildi. Bu xalqaro munosabatlarning yuqori bosqichi bo'lib, endi Fransiya O'zbekistonning strategik hamkoriga aylandi.

Parij shahrida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Fransiya Respublikasi oliy mukofoti – Faxriy legion ordeni bilan taqdirlanishi bu rasmiy Parijning yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan izchil

Senat qo'mitalarida

HAYOT O'ZGARTIRISHLAR KIRITADI



Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi ishchi guruhining kecha bo'lib o'tgan yig'ilishida mutasaddi vazirlik va idoralar vakillari tomonidan Jinoyat kodeksining 266-moddasiga (Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish) o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq Oliy Majlis Senati qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. Mazkur tashabbus doirasida parlamentning yuqori palatasi yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga oid huquqiy me'yorlarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Jinoyat kodeksining 266-moddasida nazarda tutilgan qilmish ehtiyotsizlik oqibatidagi jinoyat sifatida e'tirof etilsa-da, oxirgi vaqtlarda bu turdagi qilmishlar yo'l harakatining boshqa ishtirokchilari, xususan, piyodalar, veloped haydovchilarining huquqlarini mensimaslik, ayniqsa, muqaddam yo'l harakati qoidalarini buzganligi yoki yo'l-transport hodisasini sodir qilganligi uchun transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etilganlar, shuningdek, mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoxud kishining aql-idrokini sarxush qiluvchi boshqa moddalar ta'siri ostida bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilayotganligi kuzatilmoqda. Xususan, 2020 – 2024-yillar davomida mast haydovchilar sababli 600 ga yaqin yo'l-transport hodisalari oqibatida 322 nafar fuqaro halok bo'lgan. 2024-yilning o'zida transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilingan shaxslar tomonidan ro'yxatga olingan 405 ta YTH sabab 94 nafar fuqaro vafot etgan. Bunday holatlar aholining haqli e'tiroziga sabab bo'lmoqda va ijtimoiy tarmoqlar orqali amaldagi qonunchilikni yanada kuchaytirish lozimligi ta'kidlanmoqda.

Shu bois Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi tomonidan mutasaddi vazirlik va idoralardan olingan fikrlar asosida Jinoyat kodeksining 266-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali yo'l harakati qoidalarini qo'pol buzgan haydovchilarga nisbatan jinoyatning og'irligini hisobga olgan holda jazo choralarini kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Yig'ilishda Bosh prokuratura, Adliya va Ichki ishlar vazirliklari hamda Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida ishchi guruhning ham takliflari muhokama qilindi. Jinoyat kodeksining yuqorida qayd etilgan muddasida belgilangan huquqbuzarlik transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilingan yoki mastlik holatida yoxud giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoki kishining aql-idrokini sarxush qiluvchi boshqa moddalar ta'siri ostida bo'lgan shaxs tomonidan sodir etilganda og'irroq jazo choralarini qo'llashni nazarda tutuvchi tegishli qonun loyihasini tayyorlash uchun mas'ul vazirlik va idoralar vakillaridan iborat tarkibida ishchi guruhi shakllantirish masalasi ko'rib chiqildi. Yig'ilish yakunida ishchi guruh a'zolari mutasaddi vazirlik va idoralar vakillari bilan birgalikda qonunchilik takliflarini takomillashtirish va mazkur sohada huquqiy me'yorlarni yanada kuchaytirish yuzasidan ishlarni davom ettirish muhimligini urg'uladi.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA BARCHA IMKONIYATLAR ISHGA SOLINADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining kuni kecha bo'lib o'tgan majlisida Prezident Shavkat Mirziyoyevning shu yil 5-mart kuni o'tkazilgan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha Qonunchilik palatasi va uning qo'mitalari oldida turgan vazifalar ko'rib chiqilgandi. Majlisda so'zga chiqqan qo'mitalar raislari korruptsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olish bo'yicha munosabatlarini bildirib, kelgusidagi rejalar bilan o'rtiqlashdi.



Nuqtai nazar

Gulruh AGZAMOVA, Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi raisi:

– Korruptsiyaga murosasiz bo'lish, aholini qiynayotgan, yillar davomida yechimini kutayotgan muammolarni aniqlash va yechim topish borasida faoliyatimizni to'laqonli qayta ko'rib chiqib, yangicha uslubda ish boshladik. Nodavlat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, davlat granti, ijtimoiy buyurtma va subsidiyalarni berish tartibini soddalashtirish, korruptsiyaga nisbatan murosasiz bo'lish uchun yanada ko'proq sharoit yaratib, bunga keng jamoatchilikni jalb qilish, ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, imkoniyatlardan keng foydalanish bo'yicha takliflarni tayyorlashga kirishganmiz.

Joriy yil boshidan mazkur masalalar bo'yicha amaldagi qonunchilik normalari qayta ko'rib, ayrim qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan tashabbus huquqi asosida qonun loyihalarini ishlab chiqishga e'tibor qaratilmoqda. Xususan, o'tgan haftada nodavlat tashkilotlari faoliyatiga yanada erkinlik berish, ularning korruptsiyaga nisbatan murosasiz kurashi uchun ijtimoiy buyurtmalarni olish tartiblarini yangilash bo'yicha ikkita qonun loyihasi ishlab chiqilib, jamoatchilik va deputatlarimiz muhokamasiga qo'yildi.

Ayni vaqtda qo'mitamiz o'z oldiga qator aniq maqsadlarni qo'ydi. Jumladan, qo'mita huzuridagi jamoatchilik kengashi, aql va tahlil markazlari salohiyatidan keng foydalangan holda mahallaning o'zida korruptsiyani keltirib chiqarayotgan omillar va manbalarni sohaviy o'rganishga ahamiyat berildi. Bunda "mahalla yetilligi" tizimidan unumli foydalanib, joylarda fuqarolar duch kelayotgan korruptsiya va byurokratik to'siqlarni aniqlash, o'rganish orqali qonunchilik takliflarni tayyorlash, davlat idoralarga tegishli tavsiyalarni berishda tashabbuskor bo'lish talab etiladi.

Deputatlarimiz hamda qo'mita huzuridagi jamoatchilik kengashi a'zolari vazirliklar qoshidagi jamoatchilik kengashlariga biriktiriladi. Har oyda bitta vazirlikning jamoatchilik kengashi faoliyatini o'rganib, ularning samaradorligini oshirish bo'yicha huquqiy, amaliy yordam beriladi. Doimiy ravishda nodavlat tashkilotlarini qiynayotgan byurokratik to'siqlarni o'rganishda, jamiyatimizda korruptsiyaga toqat qilmislik muhitini yaratishda ularning jamoatchilik nazoratini olib borishda faollik ko'rsatamiz.

Iltimos ABDULLAYEV, Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi raisi: – Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan jamiyatimiz rivojlanishida amaliy natijalarini bermokda. Albatta, bunda parlament

tomonidan tegishli qonunchilikni takomillashtirish asosiy vazifalardan biri bo'lyapti.

Qayd etish kerak, so'nggi yillarda raqamlashtirish sohasi izchil rivojlanmoqda va bu, o'z navbatida, aholi turmush farovonligi hamda davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Buni elektron davlat xizmatlari soni 15 karra ortib, 721 taga yetgani, aholi va tadbirkorlarga "Xalq xizmatidagi davlat" tamoyili asosida xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgani misolida ko'rish mumkin. Ammo ushbu sohada hozirda o'z yechimini topmagan bir qancha masalalar ham mavjud.

Davlatimiz rahbari nutqidan kelib chiqib, yaqinda qo'mitamiz deputatlari Toshkent viloyatining bir nechta mahallalarida bo'lib, "mahalla yetilligi" faoliyatida raqamlashtirish masalasi o'rgandi. Bu jarayonda ish samaradorligini pasayishiga sabab bo'luvchi bir nechta muammoli masalalar aniqlandi. Masalan, hududlarda faoliyat olib borayotgan "mahalla yetilligi" vakillari 20 dan ziyodi elektron platformalardan foydalanmoqda, lekin ular yagona markazlashgan tizimga integratsiya qilinmagan. Mahalla raislarining esa nafaqat elektron platformalarda ishlash, balki ma'lumotlar bilan to'liq tanishishi uchun ham tizimlarda imkoniyat yaratilmagan.

Qo'mitamiz ushbu sohada qat'iy parlament nazoratini yo'lga qo'yishga, mavjud qonunchilikni takomillashtirishga e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, ma'ruzada Prezidentimiz tomonidan qo'mitamizga xalqaro tajribani o'rganish uchun kibernetik korruptsiyaga qarshi samarali kurashish bo'yicha mustahkam huquqiy baza yaratishga boshchilik qilishdek muhim topshiriq berildi.

Bu, albatta, judayam muhim vazifa bo'lib, kibernetik korruptsiyaga asoslangan korruptsiya jinoyatlarini cheklash, davlat boshqaruvi tizimida ochiqchilik va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi. Berilgan vazifa yuzasidan o'z rejalarimizni belgilab oldik va ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan tarzda ushbu masalalar jirosiga qo'mita deputatlari bilan birgalikda mas'uliyatni zimмага olgan holda yondashamiz.

Ulug'bek SHERMATOV, Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi: – Davlatimiz rahbari jinoyatchilikning oldini olishda parlament, xususan, mas'ul qo'mitalar o'z imkoniyatlaridan hali yetarlicha foydalanmayotganini ta'kidlab o'tdi. Bizning qo'mita faoliyatida ham e'tiborimizdan chetda qolgan ayrim masalalar mavjudligini tan olishimiz kerak.

Qayd etish joiz, kriminologiyaviy zaryati murakkab, "qizil" toifaga kirgan mahallalar bor. O'sha hududlarda jinoyatchilikning

oldini olish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishda ichki ishlar organlari bilan yangicha uslublarni qo'llagan holda hamkorlik qilishimiz zarur.

Qo'mitamiz nafaqat mahallagacha, balki xonadonlarga ham tashrif buyurib, fuqarolar bilan bevosita muloqot o'rnatish orqali jinoyatlarining kelib chiqish sabablari va omillarini aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni to'g'ridan-to'g'ri vazirlikka, markazga uzatish emas, birinchi navbatda, o'sha joyning o'zida mazkur jinoyatlarining oldini olish yuzasidan yechimlarni topishga e'tibor qaratadi.

Deputatlar ushbu jarayonda faqat kuzatuvchi sifatida emas, balki bevosita ishtirokchi sifatida faoliyat yuritishi lozim. Bu borada faoliyat rejimizda yangi yondashuvlarni, ish uslublarini belgilab oldik. Xususan deputatlarimiz joylarga – saylovchilar bilan uchrashuvlarga chiqqan paytda, mahallalarda jinoyat holati bo'yicha davomiy tahlillar o'tkazish orqali jinoyat sodir etish xavfi yuqori bo'lgan hududlar aniqlab boriladi. Ushbu tahlil natijalari "mahalla yetilligi" ishtirokida, mahalla fuqarolari bilan birga muhokama qilindi.

Har bir deputat o'z saylov okrugidagi profilaktika inspektorlari faoliyatini nazorat qilib borishi va uning ish samaradorligi bo'yicha muntazam tahlil o'tkazishi kerak. Profilaktika inspektorlari faoliyatini baholashda fuqarolar fikrini hisobga olish tizimining joriy etilishi, ularning ish faoliyati bo'yicha ochiq elektron reyting tizimi ishlab chiqilishi mumkin.

Profilaktika inspektorlarining takliflarini o'rganish ham mahallalarda jinoyatchilikni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli, deputat profilaktika inspektorlari bilan ham bevosita muloqot ko'prigini o'rnatishi lozim.

Qo'mitamiz ma'ruzada belgilangan boshqa vazifalar, ya'ni korruptsiya, ayniqsa, maishiy korruptsiyaga oid holatlarni joylarda aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni tayyorlash, ularni amalga oshirish yuzasidan ham ish rejasini tayyorlamokda.

Xayrillo G'AFFOROV, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi raisi:

– Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida davlatimiz rahbari barcha sohada, umuman, jamiyatimizda korruptsiya illatiga qarshi ayovsiz kurash olib borishning aniq dasturiy yo'nalishlarini ko'rsatib berdi. Shundan kelib chiqqan holda, qo'mitamiz oldida turgan ustuvor vazifalar belgilab olindi. Xususan, qo'mita ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik hujjatlarini ularning nomutanosibliklari, bo'shliqlari, byurokratik to'siqlar, korruptsiyaga va manfaatlar to'qnashuvi holatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan normalarning mavjudligi nuqtai nazaridan o'rganadi.

Bu borada keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan fikrlar va saylovchilardan kelib tushgan xalqchil takliflar asosida qonunlarni takomillashtirish choralarini ko'radi. Shuningdek, qo'mita mas'ulligidagi sohaga oid qonun loyihalarini aholi o'rtasida muhokama qilib, fuqarolarning jo'yali tavsiya va takliflari asosida ularning puxta va hayotiylikni ta'minlashga e'tibor qaratiladi.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ayrim xizmatlarni ko'rsatishda xizmat qiymatining aniq belgilanmagan holatlari mavjud. Bu esa manfaatlar to'qnashuvi va korruptsiyaga olib kelishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish uchun qo'mitamiz qonunlardagi bo'shliqlarni to'ldirish borasida qonunchilik tashabbusi huquqidan keng foydalanadi.

Ushbu jarayonda eng samarali usullardan biri – bu raqamlashtirish sanaladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini to'liq raqamlashtirish bo'yicha aniq taklif va tashabbuslar ishlab chiqildi.

Qabul qilingan qonun hujjatlari ijrosi ustidan ta'sirchan parlament va deputatlik nazorati amalga oshiriladi.

Prezidentimiz tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashishda belgilab berilgan vazifalar qo'mita faoliyatida dasturlamal bo'lib xizmat qiladi. Ularni amalga oshirish borasidagi faoliyatimizni aniq natijalarga erishishga qaratamiz.

Sherzod TO'XTASHEV, Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

– Prezidentimiz kengaytirilgan yig'ilishda faoliyatimiz davomida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish borasida qilinishi lozim bo'lgan hamda oldimizda turgan vazifalar bo'yicha yo'nalis berib o'tdi. Albatta, qo'mita bundan o'ziga tegishli xulosa chiqardi. Belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Senatning mas'ul qo'mitasi va boshqa davlat idoralari vakillari bilan hamkorlikda 80 dan ortiq banddan iborat "Yo'l xaritasi" tayyorlandi.

Yig'ilishda korruptsiyaviy jinoyatlarining 75 foizi tuman va mahallada maishiy korruptsiya shaklida sodir etilayotgani, qo'mitamiz faoliyati mahalliy Kengashlar, tuman, mahalla, ya'ni quyi tizim bilan bog'lanmagan uchun samarali natija bermayotgani ta'kidlangan edi. Shundan kelib chiqib, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi va Senat bilan hamkorlikda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengashlar tarkibini yangilash, ular bilan hamkorlikda faoliyat olib borish ishlarini jonlantirish borasida har bir hududga chiqqan holda ishlarni tashkil qilish rejasini ta'kidlangan.

Har o'nying 1 – 5 sanalari "Jinoyatchilikka qarshi kurashish haftaligi" bo'lishi belgilab olindi. Qo'mita mahallagacha tushib, korruptsiya jinoyatining kelib chiqish sababi va omillarini aniqlab, tuman, viloyat prokurorlari hamda ichki ishlar boshliqlarining oldiga aniq vazifa qo'yadigan tizim ustida ishlamoqda.

Berilgan ayrim takliflarning ijrosi yuzasidan ham amaliy ishlar boshlandi. Xususan, davlat rahbari tomonidan ta'kidlangan, ya'ni vazir va hokimlar lavozimga qo'yilishidan oldin, korruptsiyaning oldini olish bo'yicha aniq rejasini parlament va mahalliy Kengashlar oldida himoya qilishning mexanizmini belgilash borasida qonun loyihasi tayyorlandi. Bunday tashqari, davlat rahbari tomonidan parlament tasdiqlagan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga korruptsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunda, asosan, jazoni kuchaytirishning o'zi bilan cheklanib qolgan, korruptsiyaning oldini olish, odamlarimizni bunga qo'zg'atish ruvida tarbiyalash, profilaktika mexanizmlarini yaratish, jinoyatni fosh qilishga yordam berganlarni rag'batlantirish kabi masalalar qonunda aks etmagan sabablari ko'rsatilgan holda qaytarildi.

Shularni inobatga olib, qonunni maramgiga yetkazish borasida bugungi kunda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda ishlar boshlab yuborildi. Bunday tashqari, jinoyi daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlikni ham xalqaro standartlarga moslashtirish, noqonuniy boylik orttirish uchun javobgarlik masalasi ko'rib chiqish borasida ishlarni jadallashtirishimiz kerak bo'ladi.

«Xalq so'zi».

QISHLOQ XO'JALIGINI SUG'URTALASH – IQTISODIY TARAQQIYOT KAFOLATI

Oliy Majlis Senati Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasining majlisi bo'lib o'tdi. Unda "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish to'g'risida"gi qonun dastlabki tarzda muhokama etildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda ichki va tashqi bozorda ijtimoiy ahamiyatga ega asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi bu ehtiyojni qondirish hamda respublikaning eksport salohiyatini oshirish uchun mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirishni talab etmoqda.

Qonun bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni turli tavakkalchiliklardan himoya qilish va barqaror daromad olishini kafolatlash uchun Qishloq xo'jaligini sug'urtalash jamg'armasini tashkil etish ko'zda tutilmoqda.

Qishloq xo'jaligi sohasidagi yo'qotishlarni baholash, shuningdek, sug'urta hodisalari bo'yicha yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash mustaqil ekspertlar tomonidan amalga oshirilib belgilanmoqda. Bundan tashqari, sohada tavakkalchiliklarni sug'urtalashning mukammal mexanizmi yaratilib, sug'urta mukofotining 50 foizi davlat tomonidan qoplab berilishi mustahkamlanmoqda.

Mahsulot yetishtiruvchilarning tabiiy ofatlar va boshqa xatarlardan ko'radigan zararlarni qoplash uchun Qishloq xo'jaligini sug'urtalash jamg'armasining mablag'lari yetarli bo'lmagan taqdirda

zarur qismi respublika byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanishi nazarda tutilmoqda va qishloq xo'jaligi sohasida tavakkalchiliklarni sug'urtalash jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarning huquq va majburiyatlari belgilanyapti.

Mazkur qonun bilan qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarga xavf-xatarlar tufayli yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplashning huquqiy asosi yaratiladi. Shuningdek, sohada tavakkalchiliklarni sug'urtalash jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarning huquq va majburiyatlari aniq belgilanyapti. Bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlab, turli xavf-xatarlarning muvofiqlik ta'sirini kamaytirish imkonini yaratadi.

Majlis yakunida qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi. «Xalq so'zi».

ZO'RAVONLIKKA ASOSLANGAN EKSTREMIZMNING OLDINI OLISH YO'LIDA

Kuni kecha Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi O. Qozixonova Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ)ning "Markaziy Osiyoda zo'ravonlik ekstremizmining oldini olish" loyihasi rahbari Shtefan Buxmayer bilan uchrashdi.

Uchrashuv

Uchrashuv davomida "GIZ" tomonidan amalga oshirilayotgan loyiha doirasida yoshlar bilan ishlash bo'yicha davlat dasturlari ijrosiga ko'maklashish, zo'ravonlikka asoslangan ekstremizmining oldini olishda xotin-qizlarning ishtirokini kengaytirish hamda idoralararo hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Loyiha rahbari Shtefan Buxmayerning ta'kidlashicha, bugungi kunda Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi kabi qator idoralar bilan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Mazkur loyiha davlat va fuqarolik jamiyatining zo'ravonlikka asoslangan ekstremizmining oldini olish bo'yicha sa'y-

harakatlarini qo'llab-quvvatlashga, ayniqsa, zaif guruhlarining radikallashuviga qarshi bardoshlilikni oshirishga qaratilgan.

Uchrashuv yakunida munosabatlarni mustahkamlash va kelgusidagi hamkorlik yo'nalishlarini yanada rivojlantirish bo'yicha kelishib olindi.

Eslatib o'tamiz, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) 60 yillik tajribaga ega bo'lib, jamiyatning asosiy faoliyati hamkorlik asosida texnik va rivojlanish bo'yicha xizmat ko'rsatish, iqtisodiyot, professional o'qitish va uzluksiz ta'limni rivojlantirishga qaratilgan.

Shuningdek, "GIZ" fuqarolik jamiyati institutlari uchun ham hamkor tashkilot sifatida ish olib boradi va u O'zbekistonda 1992-yilda o'z faoliyatini boshlagan.

«Xalq so'zi».

ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK BARQARORLIK OMILI

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarining bajarilishi holati yuzasidan axboroti eshitildi.

Eshituv

Ta'kidlanganidek, hisobot davrida maqsadli ko'rsatkichlar doirasida vazirlik tomonidan qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 2024-yilda 226,4 mln. tup manzarali va mevali daraxt hamda buta ko'chatlari ekilgan. Natijada respublikadagi yirik

tuman va shaharlarning yashilik darajasi 15,3 foizga yetgan. Hududlarda 134 ta "yashil bog'lar" barpo etilgan. Shuningdek, Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo'y mintaqasida cho'llanish, qurg'oqchilik, chang-qum bo'ronlari ko'tarilishining oldini olish

maqsadida 215 ming gektar "yashil" qoplamalar yaratilgan.

Axborotda keltirilganidek, yurtingning o'rmon bilan qoplanganlik darajasi 8,1 foizga, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning umumiy maydoni 6,4 mln. gektarga yetkazilgan. 140 ta yirik sanoat va sement ishlab chiqaruvchi korxonada zamonaviy chang-gaz tozalash uskunalari o'rnatilgan.

Bundan tashqari, 93 ta sanoat korxonasida lokal oqova tozalash inshootlari qurilgan va mavjudlari rekonstruksiya qilingan. Foydali qazilmalarni qazib olish natijasida buzilgan 2006 gektar yer maydonlari rekonstruksiya qilingan.

Mamlakatimizda mavjud maishiy chiqindi poligonlar 17 foizga qisqartirilgan.

Yig'ilishda qo'mita a'zolari tomonidan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri, uning o'rinbosarlari, tizimdagi agentlik hamda qo'mita rahbar va o'rinbosarlarining 2024-yil uchun mo'ljallangan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ijrosi bandma-band muhokama qilindi.

Ushbu jarayonda suv va shamol eroziyasining oldini olish hamda ekologik muhitni yaxshilash maqsadida himoya o'rmonlarini barpo etish,

turizmni qo'llab-quvvatlash yo'nalishidagi ishlarda ayrim kamchiliklar uchrayotgani aytilib, ularni bartaraf qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar berildi.

Muhokama jarayonida davlatimiz rahbarining Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, tizimda korruptsiyaga qarshi kurashish soha vakillarining asosiy burchi ekani alohida ta'kidlab o'tildi.

Yakunda kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi. «Xalq so'zi».

Surur

YASHASIN O'ZBEKISTON, YASHASIN FARANGISTON!

Koinot puchmog'ida yuguradi Yer shari, Kim ortda qolib borar, kim o'tadi ilgari, Hammaning intilgani tong sari, o'tob sari, Ko'zlarin katta ochib qaradi ko'hna jahon, Yashasin O'zbekiston, yashasin Farangiston!

Dunyo yetakchilari yuz yuvib og-gilimda, Menga salom beradi bugun ona tilimda Koshg'ariy gavharlari sado berar dilimda, Bir yonda o'rmonlar lol, bir yonda lo'dir ummon, Yashasin O'zbekiston, yashasin Farangiston!

Bo'yimiz-ku o'tibdi Eyfel minorasidan, Alpomish o'tganmikan Alping kanorasidan, Ajdodlar sasi keldi Qirol koshonasidan, Lojuvard sohillarda bitildi yangi doston, Yashasin O'zbekiston, yashasin Farangiston!

Luvning son-sanoqsiz tilla g'aladonlari, Ko'hna tandirlarimning kemik kulcha, nonlari, Qaysi bobolarimning, voh, lomakon jonlari... Orzularni yalovdek ko'targay zo'r qahramon, Yashasin O'zbekiston, yashasin Farangiston!

Farang atrin atri bor gulzorlarim gulida, Sirdaryo bilan Sena abadiyat yo'lida, Boychechak gul ochadi o'ngirning o'ng-so'lida, Qalqib turgan olamda el-yurtim bo'lsin omon, Yashasin O'zbekiston, yashasin Farangiston!

Aziz tutildi yana kitob qadri, so'z qadri, Osmonning nur burjida turnalarning par satri, Bu ko'hna dunyo asli abadiyat teatri... Bizga qarab turibdi uzoqdan Sohobigiron, Yashasin O'zbekiston, yashasin Farangiston!

Samarqand kirib bordi Parij ko'chalariga, Yulduzlari sochildi Parij kechalariga, Samarqand noni kirdi Parij rejalariga, Qo'ngan yerida aziz bo'ldi eng oliy nishon, Yashasin O'zbekiston, yashasin Farangiston!

O'zbekiston bo'y cho'zdi Yelisey maydonida, O'zbek yulduzi yondi faranglar osmonida, Do'slik rishitasi muqim elning tani jonida, Osiyo, Ovro'pada boshlandi yangi zamon, Yashasin O'zbekiston, yashasin Farangiston!

Salim ASHUR,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.

20 MINGDAN ZIYOD KO'CHATLAR O'TQAZILDI

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Mudofaa vazirligi tomonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Harbiy obyektlar atrofini ko'kalamzorlashtirish orqali odamlar uchun qulay ekologik muhit yaratish mazkur tashabbusning muhim jihatlardan biridir.

Umummilliy loyiha

Xususan, Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida vazirlik tarkibidagi qo'mondonlik tomonidan 50 gektar yer maydoniga 20 mingdan ziyod mevali daraxt ko'chatlari o'tqazildi.

Vazirlik Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamentidan ma'lum qilinishicha, ekilayotgan daraxtlarning moshlashuvchanligi va hosildorligi inobatga olindi. Tegishli mutaxassislar va ekologlar ushbu

hudud uchun mos keladigan daraxt turlarini tanlab, ularni parvarish qilish hamda sug'orish masalalari bo'yicha tavsiyalar berdi.

Aytish joizki, ko'chat ekish tadbirlari, yashil hududni kengaytirish, ekologik muammolarning oldini olish



va tabiatni muhofaza qilishda muhim o'rin tutadi.

Rahim SHERQULOVA
(«Xalq so'zi») tayyorladi.

Bank ko'magida rivojlanayotgan qo'shma korxonalar

"O'z sanoatqurilishbank" ATB tashabbusi bilan Qarshi shahridagi poyabzal ishlab chiqaruvchi "UzShoes" O'zbekiston - Belarus qo'shma korxonasi press-tur tashkil etildi. Ommaviy axborot vositalari vakillari korxonaning ishlab chiqarish jarayoni, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va eksport salohiyatini oshirish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Moliya muassasalarida

Ta'kidlash joiz, "UzShoes" korxonasi Qashqadaryo viloyatida bir necha yildan buyon barqaror faoliyat yuritib kelayotgan yirik sanoat korxonalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda Italiya, Germaniya va Avstriya davlatlaridan keltirilgan zamonaviy texnologiyalar yordamida 60 turdan ortiq

o'lcham va dizayndagi poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. - Ayni paytda ishlab chiqarishning barcha jarayonini qamrab olganmiz, - deydi korxonasi boshqaruvchisi G'afur Hoshimov. - Poyabzalning tag qismini quyishdan tortib, bichish, tikish va qadoqlash bilan bog'liq



barcha ishlar shu yerning o'zida amalga oshiriladi. Hozir, asosan, buyurtma asosida ishlayapmiz - bir kunda o'rtacha 700 juft poyabzal tayyorlanib, buyurtmachilarga yetkazib berilmoqda. Bu faoliyat ortidan esa 200 ga yaqin kishilarning doimiy ish bilan bandligi ta'minlangan.

Korxonaning bosqichma-bosqich rivojlanishida moliyaviy hamkor tashkilot - "O'z sanoatqurilishbank" ning ham hisssasi katta bo'lmoqda. Bugungi kunda korxonada bank ko'magi bilan yana bir yirik loyiha amalga oshirilmoqda.

chiqarish quvvati 500 ming juftga yetkazilib, yana 300 ta yangi ish o'rni yaratilishi ko'zda tutilgan.

Press-tur davomida "O'z sanoatqurilishbank" ning Qashqadaryo viloyatidagi bank xizmatlari ofisida matbuot anjumani ham tashkil etildi.

Unda ta'kidlanishicha, 2024-yilda "O'z sanoatqurilishbank" tomonidan birgina Qashqadaryo viloyatining o'zida qariyb 1 trillion so'mlik loyihalar moliyalashtirilgan. Buning natijasida 4,5 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilgan. Joriy yilda ham mazkur yo'nalishdagi ishlar izchil davom etmoqda.

Jahongir BOYMURODOV
(«Xalq so'zi»).

PEKJAMA

Tanlovda qatnashish istagini bildirgan yuridik shaxslar diqqatiga

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-fevraldagi 141-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7-martdagi 124-sonli hamda 2022-yil 25-iyuldagi 404-sonli qarorlariga asosan, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining bo'sh suv havzalari uchastkalarini tanlov asosida ijaraga berilishi ma'lum qilinadi.

Tanlov tashkilotchisi: "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi" MCHJ.

Manzili: Jizzax viloyati, Arnasoy tumani, G'oliblar shaharchasi.

Telefonlar: 94-347-62-27, 99-771-57-55, 93-295-99-90.

Elektron pochta: aydarkol@umail.uz

Tanlov predmeti: Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi suv havzasidagi 207,9 ming gektar bo'lgan jami 103 ta lotni baliq ovlash xo'jaliklariga sanoat baliq ovlashni amalga oshirish uchun 10 (o'n) yilga ochiq tanlov asosida ijaraga berish.

Talabgorlar tanlov haqidagi batafsil ma'lumotlarni "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi" MCHJdan olishi mumkin.

Talabgorlardan arizani ko'rib chiqish uchun BHMning uchdan bir baravari miqdorida to'lov undiriladi. Ushbu mablag'lar jamiyatning bank hisob raqamiga tushiriladi va tanlovni tayyorlash hamda o'tkazish uchun ishlatiladi. Buyurtmanomani ko'rib chiqish uchun to'lanadigan to'lovlar qaytarilmaydi.

Bundan tashqari, talabgordan suv havzasi uchastkasi uchun belgilangan yillik ijara haqining 30 foiz miqdorida to'lov (garov puli) undiriladi. Ushbu mablag'lar jamiyatning bank hisob raqamiga tushiriladi va tanlov g'olibining dastlabki to'lovi sifatida hisob-kitob qilinadi. Tanlovda g'olib bo'la olmagan talabgorning ushbu to'lovi qaytariladi.

"Trast bank" XAB Jizzax viloyati filiali h/r 2021 0000 9007 4754 5001; MFO-00491; STIR: 304 741 887;

"Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi" MCHJ.

To'lov maqsadi: "Tanlovda ishtirok etish uchun to'lov".

Tanlovda qatnashish uchun talabgor yoki uning vakili shaxsan yoxud pochta orqali buyurtma xat bilan, arizani ikki nusxada, ko'rib chiqish uchun to'lovning to'langanligini tasdiqlovchi hujjat bilan birga 2 ta muhlangan konvertida (ASLI va NUSXASI) quyidagi hujjatlarni "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi" MCHJga taqdim etishi lozim:

1. Ko'rib chiqish uchun to'lov to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar (BHMning uchdan bir baravari miqdorida to'langanligini tasdiqlovchi);

2. Korxonaga guvohnomasi va ustavi (nizom) nusxasi;

3. Korxonaga rahbarining pasport nusxasi, rahbarlikka tayinlanganligi to'g'risida buyruq, korxonada mavjud ishchi-xodimlar ro'yxati (pasport nusxalari ilova qilingan holda);

4. Baliq ovlashni amalga oshirish bo'yicha biznes-reja;

4.1 Biznes-rejada quyidagi asosiy qoidalar aks ettirilishi lozim:

■ bir yilda o'rtacha ovlashni kutilayotgan miqdor;

■ iqtisodiy samaradorlik hisob-kitoblari haqidagi ma'lumotlar;

■ kiritilishi kutilayotgan investitsiya miqdori va sohasi;

■ baliq ovlashni amalga oshirish bo'yicha biznes-rejaning moliyalashtirish manbalari (talabgorning o'z mablag'lari hisobiga, kreditlar va hokazo) bilan ta'minlanganligi haqidagi ma'lumotlar;

■ tashkil etiladigan ish o'rinlari soni;

■ xodimlar shtatining tajribali baliqchilar, ixtiologlar, boshqa mutaxassis va ekspertlar bilan ta'diranganligi;

5. Korxonaga balansidagi yoki aynan korxonaga rahbari nomidagi baliq ovlash va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish uchun moddiy-texnika vositalari (rusumi ko'rsatilgan qayiqular va motorli qayiqular, avtotransport vositalari, ovlash qurollari, baliq va baliq mahsulotlarini saqlash uchun sovitish uskunalari va hokazo)ning mavjudligi haqidagi ma'lumotlar;

6. Talabgor korxonaning umumiy va baliqchilik sohasidagi

faoliyat davriga oid ma'lumot. Xususan, baliqchilik sohasidagi muqaddam faoliyat olib borgan va bugungi kunda jamiyat uning huquqiy vorisi hisoblangan "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi direksiyasi" DUK bilan shartnoma asosida ish olib borganligi, shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajargan-bajarmaganligi, ijara shartnomasi bo'yicha qarzdorligi mavjud yoki mavjud emasligi;

7. Korxonaga balansi (o'tgan yil yakuni yoki joriy yil yakunlangan choragi bo'yicha), ya'ni o'z mablag'lari va moliyaviy holati to'g'risida ma'lumot;

8. Talabgorning tabiatni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlari kompleksini.

Talabgordan yuqorida ko'zda tutilmagan hujjatlarni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Tanlovda ishtirok etish uchun qiziqish bildirgan yuridik shaxslar jamiyatdan quyidagi hujjatlar va ma'lumotlarni olishi mumkin:

1. Tanlovda qatnashish shartlari, talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan hujjat va ma'lumotlar ro'yxati;

2. Tanlovga qo'yilgan suv havzasi uchastkalariga oid ma'lumotlar:

suv havzasi uchastkasi (konturi)ning raqami;

joylashgan koordinatlari;

maydoni;

xarita-sxemasi;

o'rta baliq mahsulodortigi;

yillik ijara haqi miqdori;

3. "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi" uchastkalarini baliq ovlash xo'jaliklariga baliq yetishtirish va ovlash uchun ijaraga berish shartnoma loyihasi bilan jamiyatda tanishish mumkin.

Talabgorlarning tanlov takliflari joylashgan konvertlar:

2025-yil 14-15-aprel kunlari soat 10.00 da Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Beshquvur ko'chasi, 56-uyda joylashgan Sirdaryo-Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma'muriy binosida ochiladi.

Nukus shahridagi Prezident maktabida «Bahor malikasi - 2025» tanlovi bo'lib o'tdi.



Byudjet xarajatlari oshdi

AQSh Moliya vazirligi tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarda qayd etilishicha, 2024-yil fevral bilan taqqoslaganda bu yilgi xarajatlari 40 milliard dollarga, ya'ni 7 foizga oshgan.

Bu federal byudjet xarajatlari qisqartirishni maqsad qilgan Ilon Mask hamda u rahbarligidagi Hukumat samaradorligi departamenti (DOGE) faoliyati davrida ro'y bermog'da.

"Newsweek" nashrida yozilishicha, "DOGE" Donald Tramp prezidentligining birinchi oyi yakunlari bo'yicha bergan hisobotida 100 mlrd. dollardan ortiq mablag'ni tejashga muvaffaq bo'lgani ko'rsatilgan.

133-yil muqaddam cho'kib ketgan kema qoldiqlari topildi

"Associated Press" muxbirining xabar berishicha, uzunligi 91 metrlik "Western Reserve" yuk kemasi to'liq po'latdan qurilgan bo'lib, u suvdagi eng xavfsiz kemalardan biriga aylinishi kutilgan edi.

Ammo 1892-yil 30-avgust kuni kema Yuqori ko'ldagi Uaytfish ko'rfazida bo'ron oqibatida to'liqlan zarbaga dosh bera olmay ikkiga bo'linib ketgan. Va barcha yo'lovchilar orasidan faqat rul boshqaruvchisi omon qolgan.

2024-yil iyulda Buyuk ko'llar kema halokatlarini o'rganuvchi olimlar ko'plab cho'kkan kemalarga duch keldi. Ulardan biri texnologik jihatdan ancha rivojlangan bo'lib chiqdi. "Western Reserve" kemasi jiddiy shikastlangan bo'lsa-da, uning qoldiqlari sovuq chuchuk suvda yaxshi saqlanib qolgan.

Amazoniya tropik o'rmonlarini kesish boshlandi

O'rmonlarni kesish Braziliyaning Belen shahrini 2025-yil noyabr oyida o'tkaziladigan "COP30" iqlim sammiti o'tkaziladigan joy bilan bog'lovchi yo'lni qurish uchun amalga oshirilmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra sammitda ishtirok etish uchun 50 mingga yaqin vakillar tashrif buyuradi. Yovvoyi hayvonlar uchun maxsus o'tish yo'laklarini tashkil etish va da qilingan bo'lsa-da, mahalliy aholi va tabiat muhojirlari norozilik bildirmoqda. Ularning fikricha, o'rmonni kesish iqlim rivojlanishiga qarshi kurashga bag'ishlanadigan sammit ruhiga zid.

Shtat hukumatining infratuzilma bo'yicha vakili Adler Siveyra ushbu avtomagistralni "COP30" doirasida o'tkaziladigan tadbirlar uchun amalga oshiriladigan 30 ta loyihadan biri, deb atadi.

Kitob kutubxonaga 99 yildan so'ng qaytarildi

Nyu-Jersida yashovchi 81 yoshli Meri Kuper 1926-yilda bobosi kutubxonadan olib kelgan kitobni topib oldi. Ayol kitobni muassasaga qaytardi, deb xabar bermoqda "CNN" muxbiri.

Kitob yog'och, metall va maishiy buyumlardan bolalar o'yinchoqlarini yasash haqida bo'lib, 1911-yilda chop etilgan. Kuperning bobosi uni vafotidan bir yil oldin kutubxonadan olgan. Meri Kuper kitobni kutubxonaga qaytarishga qaror qilsada, u kitob kechiktirilgan uchun jarima to'lashi mumkinligidan xavotirlangan. Muassasa to'lov talab qilsa, jarima miqdori 18 ming dollargacha yetishi mumkin edi.

Kitobni mamnuniyat bilan qabul qilgan kutubxona ma'muriyati u Toms-Riverdagi esdalik buyumlar ko'rgazmasidan joy olishini ma'lum qildi.

Dunyoning aksariyat shaharlarida havo ifloslangan

"Associated Press" muxbiri tomonidan e'lon qilingan maqolada ta'kidlanishicha, dunyo shaharlarining atigi 17 foizi tegishli talablarga javob berar ekan.

Gap shundaki, Shveysariyadagi "IQAir" havo sifatini monitoring qilish bazasi dunyoning 138 ta davlatida joylashgan 40 mingga monitoring stansiyasi ma'lumotlarini tahlil qilib chiqqan. Natijada havosi eng ifloslangan shaharlar Chad, Kongo, Bangladesh, Pokiston va Hindistonda joylashgani aniqlangan. Ekspertlarning aytishlaricha, havoning ifloslanishiga oid haqiqiy ko'rsatkichlar bundan ancha yuqori bo'lishi mumkin.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hisob-kitoblariga ko'ra ifloslangan havo oqibatida har yili 7 millionga yaqin odamlar vafot etmoqda.

Internet xabarlarini asosida Sharofiddin TO'LAGANOV («Xalq so'zi») tayyorladi.

Ayni vaqtda "Jadidlar izidan" tanlovi g'oliblari Germaniyada ta'lim sayohatida bo'lib turibdi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir H. Qarshiev.
Musahhif S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonaga manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 03.45 Topshirildi - 03.50 1 2 3 4 5 6